

**MADANIY TAFOVUTLAR VA ULARNING
TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI**

Zaripboyeva Dinora Ilhombek qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,

Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti,

1-kurs talabasi

Telefon:770142363

Zaripbayevadinora1@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarjima jarayonida madaniy tafovutlarning tutgan o'rni, ularning mazmun va shakl nuqtayi nazaridan tarjima sifatiga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilinadi. Xususan, madaniy realiyalar, diniy va ijtimoiy konnotatsiyalar, frazeologik birliklar va mentalitetga xos belgilar tarjima nazariyasidagi yondashuvlar doirasida ko'rib chiqiladi. Tarjimonning madaniy kompetensiyasi va uning strategik qarorlari madaniy tafovutlar sharoitida tarjimaning kommunikativ adekvatligini belgilovchi omil sifatida asoslanadi. Maqolada madaniyatlararo tafovutlarning tarjima semantikasi, pragmatikasi va interpretatsiyasiga bo'lgan ta'siri haqida nazariy qarashlar va ilg'or tadqiqotlar asosida mulohazalar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Tarjima nazariyasi, madaniy tafovut, madaniy realiyalar, madaniyatlararo kommunikatsiya, tarjimon kompetensiyasi, adekvatlik, interpretatsiya.

Abstract: This article analyzes the role of cultural differences in the translation process and their impact on the quality of translation in terms of content and form. In particular, cultural realities, religious and social connotations, phraseological units, and signs of mentality are considered within the framework of approaches in translation theory. The cultural competence of the translator and his strategic decisions are justified as a factor determining the communicative adequacy of translation in conditions of cultural differences. The article reviews the impact of intercultural differences on the semantics, pragmatics, and interpretation of translation based on theoretical views and advanced research.

Keywords: Translation theory, cultural difference, cultural realities, intercultural communication, translator competence, adequacy, interpretation

Аннотация: В статье анализируется роль культурных различий в процессе перевода и их влияние на качество перевода с точки зрения содержания и формы. В частности, в рамках подходов в теории перевода рассматриваются культурные реалии, религиозные и социальные коннотации, фразеологические единицы, признаки менталитета. Обосновывается культурная компетентность переводчика и его стратегические решения как фактор, определяющий

коммуникативную адекватность перевода в условиях культурных различий. В статье на основе теоретических представлений и передовых исследований рассматривается влияние межкультурных различий на семантику, прагматику и интерпретацию перевода.

Ключевые слова: Теория перевода, культурные различия, культурные реалии, межкультурная коммуникация, компетентность переводчика, адекватность, интерпретация.

Hozirgi kunda globallashuv jarayonlari ortidan jarayonda tarjimaga bo'lgan ehtiyoj ham ortib bormoqda. Bu tarjima orqali tuli xil xalqlar o'zining ma'daniyatini, tafakkur va qadriyatini almashishadi Biroq tarjima bu faqat lingvistik muvofiqlik emas, balki madaniy ekvivalentlikni ta'minlash san'atidir. Chunki har bir til o'ziga xos madaniyatni, mentalitetni va tarixni o'zida aks ettiradi.

Shu sababdan, tarjima jarayonida faqatgina grammatik me'yorlarni emas, balki madaniy tafovutlarni ham hisobga olish zarur. Aks holda, tarjima qilinayotgan matn noto'g'ri yoki kontekstdan yiroq talqin qilinishi, hatto madaniy tushunmovchiliklarga sabab bo'lishi mumkin. Ushbu maqolada tarjimada madaniy tafovutlarning ta'siri, ularni qanday qilib yengish mumkinligi va tarjimon kompetensiyasi muhim omil sifatida tahlil qilinadi.

Madaniy tafovut tushunchasining nazariy asoslari

Til va madaniyat bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan tushunchalardir. Madaniyat insoniyatning jamiyatda yashash jarayonida shakllangan qadriyatlar, urf-odatlar, diniy e'tiqodlar, san'at, axloq, huquqiy tizimlar va boshqa ijtimoiy hodisalariningyig' indisidir. Har bir tilda o'sha millatning madaniyati aks etgan bo'ladi. Shu bois tarjima jarayonida lingvistik ekvivalentlikdan tashqari madaniy konnotatsiyalarga ham e'tibor qaratilishilozim.

Geert Hofstede (2001, p. 79–274) tomonidan ishlab chiqilgan madaniy o'lchovlar nazariyasida madaniyatlar kuch masofasi, individualizm/kollektivizm, noaniqlikka toqatlilik kabi mezonlar asosida farqlanadi. Shu jihatlar tarjima jarayonida muayyan madaniyatga xos xatti-harakatlar, muloqot shakllari va axloqiy me'yorlarning moslashtirilish zaruratini keltirib chiqaradi.

E. A. Nida (1964 pp. 159–167) esa tarjimadagi madaniy ekvivalentlikni ta'minlash uchun "dinamik ekvivalentlik" prinsipini ilgari suradi. Uning fikricha, asliyat matnni o'quvchi auditoriya madaniyatiga moslashtirgan holda, iloji boricha aslga yaqin semantik va pragmatik ta'sirni ishlab chiqishi kerak. Bassnett tarjima faqatgina til almashtirish emas, balki bu jarayonga madaniyatlararo ko'prik sifatida qarash kerakligini ta'kidlaydi. Bassnett, S. (2014 p. 14-16). *Translation Studies*. Routledge

Madaniy tafovutlarning tarjimaga ta'siri

Madaniy realiyalar

Madaniy realiyalar — bu boshqa tillarda bevosita ekvivalenti (ya’ni sinonimi) bo‘lmagan tushunchalar bo‘lib, ular tarixiy, geografik, diniy yoki siyosiy omillarga bog‘liq. Masalan, “kurpacha”, “qalpoq”, “sufra” kabi o‘zbek tilidagi tushunchalarning ingliz tilida to‘g‘ridan-to‘g‘ri muqobil varianti yo‘q. Shuning uchun tarjimon bu so‘zlarni kontekstga mos tarzda tarjima qilib izohlab berishga majbur bo‘ladi.

Masalan:

O‘zbekcha: Mehmonlar kelishi bilan darrov dasturxon yozildi.
Inglizcha: As the guests arrived, a traditional Uzbek meal was quickly prepared and spread on the floor.

Bu yerda “dasturxon yozildi” iborasi bevosita tarjima qilinmagan, balki ma’nosi tushunarli qilib omma tushunadigan yo’lda yetkazib berilgan

Frazeologik birliklar

Frazeologik birliklar madaniy tafakkur mahsuli bo‘lib, ko‘pincha metaforik ma’noga ega bo‘ladi. Bunday iboralarni so‘zma-so‘z tarjima qilish, gapning to‘g‘ri ma’nosini chiqarmasdan ma’nosizlikka yoki noto‘g‘ri tushunishga olib keladi.

Misollar:

- **“Qo‘schnittlichkeit – qadrdonchilik.”** Iborasini ingliz tilida quyidagicha talqin qilish mumkin:

“Good neighbors are like family.”

- Inglizcha “Kick the bucket” iborasi — “vafot etmoq” degani. O‘zbekchada esa “olamdan o‘tmoq” kabi neytral va madaniyatga mos ifoda ishlatiladi.

Diniy va ijtimoiy konnotatsiyalar

Diniy termin va iboralarni tarjima qilish jarayonida nihoyatda ehtiyojkorlik bilan yondashish kerak bo‘ladi. Har bir din o‘ziga xos termin va tushunchalarga ega. Masalan, “halol”, “harom”, “baraka”, “taqvo” kabi tushunchalar tarjima qilinayotganda nafaqat lug‘aviy, balki tafsiriy izoh bilan boyitilishi talab etiladi.

Tarjimonning madaniy kompetensiyasi

Tarjima faqat grammatikani emas, balki muloqotning madaniy jihatlarini ham o‘z ichiga qamrab oladi. Shuning uchun ham tarjimonning madaniy kompetensiyasi — u biladigan tillarning madaniyatini chuqr tushunishi, ularning ijtimoiy kontekstini anglay olishi va mos yechim topa olish qobiliyatidir.

Mona Baker (**p. 5–6** 1992) bu kompetensiyani tarjimaning muhim tarkibiy qismlaridan biri deb biladi. Uning fikricha, tarjimon semantik tenglikdan tashqari, kommunikativ maqsadni to‘liq tushunib, kerak bo‘lsa, transformatsiyalardan foydalana olishi zarur.

Madaniy tafovutlar bilan ishslashda quyidagi strategiyalar qo‘llaniladi:

- **Adaptatsiya (moslashtirish)**

- **Izohli tarjima**
- **O‘zlashma** (transliteratsiya va izoh)
- **Madaniy ekvivalent topish**

Ekvivalentlik va adekvatlik muammosi

Tarjimada “ekvivalentlik” va “adekvatlik” tushunchalari ko‘p muhokama qilinadi. Ekvivalentlik bu – mazmun jihatdan muvofiqlik bo‘lsa, adekvatlik esa – kontekst, uslub va funksional moslikni ham o‘z ichiga oladi. Tarjima nazariyasida “ekvivalentlik” va “adekvatlik” tushunchalari tarjima sifatini baholashda markaziy o‘rin tutadi. Har ikkala termin ham bir-biriga yaqin bo’lsa-da, ular aytim jihatlar bilan farqlanadi va tarjimon tarjima qilish jarayonida turli yondashuvlarni ifodalaydi.

Ekvivalentlik (equivalence)

“Ekvivalentlik” tushunchasi, eng avvalo, **mazmuniy muvofiqlikni** bildiradi. Bunda manba tilidagi xabar (kontent) va maqsad tilidagi xabar bir xil axborot yukiga ega bo‘lishi kerak. Ekvivalentlik nazariyasining asoschilaridan biri bo‘lgan **Eugene A. Nida** tarjimada ikki xil ekvivalentlik borligini taqdim etadi:

- **Formal ekvivalentlik** – bu *so‘zma-so‘z va grammatik struktura* darajasidagi moslik bo‘lib, tarjima matni imkon qadar originalga yaqin bo‘lishi talab etiladi.

- **Dinamik (yoki funksional) ekvivalentlik** – bu *xabarni* maqsad auditoriyasiga **psixologik va madaniy ta’siri** bo‘yicha o‘xshatishga asoslanadi. U original matndagi ta’sirni saqlab qolishga harakat qiladi.

• Nida bu haqda shunday yozadi: “Dynamic equivalence focuses on the principle of equivalent effect — the relationship between receptor and message should be substantially the same as that which existed between the original receptors and the message.” (*Nida, 1964, p. 159*)

- Shu tariqa, ekvivalentlik tarjimaning semantik (mazmuniy) jihatiga ko‘proq e’tibor qaratadi.

Adekvatlik (adequacy)

- “Adekvatlik” tushunchasi esa tarjima jarayonida **kontekst, funksional vazifa, uslub va madaniy moslikni** o‘z ichiga olgan **kompleks moslikni** bildiradi. U Rossiyalik tarjima nazariyotchilari, xususan, **Viler, Komissarov** va **Barkhudarov** ishlarida keng yoritib borilgan. Ularning fikricha:

- “Adekvat tarjima — bu manba tilidagi kommunikativ vazifani, uslubiy xususiyatlarini, lingvistik va madaniy fonini imkon qadar to‘liq va aniq qayta yaratgan tarjimadir.”

(*Komissarov, 1990, p. 149*)

- Adekvatlik – bu faqatgina so‘z darajasidagi emas, balki **tekst darajasidagi kommunikativ tenglikni** ko‘zda tutadi. Masalan, reklama, she’r, hazil, siyosiy nutq kabi matnlarni tarjima qilish jarayonida faqat ekvivalentlik

yeterli bo‘lmaydi; ularni **kontekst, madaniy muhit va funksional vazifaga** qarab adekvat tarjima qilish lozim bo‘ladi.

Masalan, rus tilidan o‘zbekchaga:

“Он потерял голову от любви.” — bu ibora o‘zbek tilida “U muhabbat girdobida o‘zini yo‘qotdi” tarzida tarjima qilinadi. Bu yerda adekvatlik saqlanib, iboraning konnotatsiyasi ham uzatiladi.

Tarjima nazariyasi vakillaridan V. Komissarov, A. Fedorov, S. Bassnett kabilar bu ikki tushunchaning farqini ilmiy asoslab, ularni tarjimada uyg‘unlikda qo‘llash zaruratini ta’kidlaydi.

Tarjimada madaniy tafovutlarning amaliy ifodasi

Adabiy tarjimada

Adabiy asarlar tarjima qilishda madaniy tafovutlar ayniqsa muhim o’rin tutadi. Misol uchun, Abdulla Qahhorning “Sinchalak” asarida o‘zbek xalqining mentaliteti, urf-odatlari, hayot tarzini aks ettiruvchi tafsilotlar mavjud. Bularni chet tiliga o‘tkazishda oddiy so‘zlardan tashqari, madaniy izohlar bilan to‘ldirish talab etiladi. Zero, o‘zbek xalqining madaniyati boshqa xalq vakillariga to’liq va tushunarli yetib borishi kerak.

Reklama va tijoriy tarjima

Reklamada hissiy ta’sir, madaniy konnotatsiyalar juda muhim. Masalan:

“Because you’re worth it” — “Chunki siz bunga loyiqsiz”
“I’m loving it” — “Yaxshi ko‘rishim tabiiy” yoki “Bu menga yoqmoqda”

Bu yerda tarjimon madaniy sezgirlikni saqlagan holda ekvivalent topishi lozim.

Adekvatlik – bu faqatgina so‘z darajasidagi emas, balki **tekst darajasidagi kommunikativ tenglikni** ko‘zda tutadi. Masalan, reklama, she’r, hazil, siyosiy nutq kabi matnlarni tarjima qilishda faqat ekvivalentlik yeterli bo‘lmaydi; ularni **kontekst, madaniy muhit va funksional vazifaga** qarab adekvat tarjima qilish lozim bo‘ladi.

Madaniy tafovutlar tarjima qilish juda muhim hisoblanadi. Ular tarjima matnini nafaqat mazmun, balki uslubiy, kommunikativ va estetik jihatlariga ta’sir ko‘rsatadi. Tarjimon ushbu tafovutlarni anglay olishi, ularni zarur hollarda transformatsiya qila olishi va tarjima matniga mos keladigan yondashuvlarni tanlashi lozim. Bu esa tarjimonning lingvistik emas, balki madaniy kompetensiyasiga ham bog‘liq. Madaniy tafovutlar sharoitida yuqori sifatli tarjima faqat nazariy bilimlar emas, balki madaniyatlararo sezgirlik asosida yaratiladi.

Shu tariqa, ekvivalentlik tarjimaning semantik (mazmuniy) jihatiga ko‘proq e’tibor qaratadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Hofstede, G. (2001 p.79). *Culture’s Consequences*. Sage Publications.
2. Nida, E. A. (1964 p.159). *Toward a Science of Translating*. Brill.
3. Bassnett, S. (2014 p.14-16). *Translation Studies*. Routledge.
4. Baker, M. (1992 p. 5–6). *In Other Words: A Coursebook on Translation*. Routledge.
5. Комиссаров В.Н. (1990 p.149). *Теория перевода*. Высшая школа.